



O'ZBEK TILIDA SO'ZLASHUVCHI TALABALAR UCHUN INGLIZ TILINI
O'RGANISHDA KOGNITIV JARAYONLAR VA STRATEGIYALAR

Nurmatova Mashhura Tuychi qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Nabiyeva Asalxon Ulug'bek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi ilmiy rahbar

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek tilida so'zlashuvchi talabalar uchun ingliz tilini o'rganish jarayonida ishtirok etuvchi kognitiv jarayonlar va o'rganish strategiyalari tahlil qilinadi. Unda diqqat, xotira, idrok va tafakkur kabi asosiy aqliy faoliyatlar til o'zlashtirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, kognitiv, metakognitiv, ijtimoiy va affektiv strategiyalarni qo'llash orqali o'rganish samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatiladi. Tadqiqot natijalari ingliz tilini o'rganayotgan o'zbek talabalariga o'z til va tafakkur xususiyatlariga mos yondashuvni tanlashda yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *Kognitiv jarayonlar, o'rganish strategiyalari, ingliz tili, o'zbek talabalar, diqqat, xotira, tafakkur, metakognitiv strategiyalar, til o'zlashtirish, til ta'limi.*

Annotation: *This paper analyzes the cognitive processes and learning strategies involved in English language acquisition among Uzbek-speaking students. It highlights the role of key mental functions such as attention, memory, perception, and thinking in effective language learning. The study also explores how cognitive, metacognitive, social, and affective strategies can enhance learning efficiency. The findings provide practical insights for Uzbek learners to choose approaches aligned with their linguistic and cognitive characteristics.*

Keywords: *Cognitive processes, learning strategies, English language, Uzbek students, attention, memory, thinking, metacognitive strategies, language acquisition, language education.*

Dunyo rivojlangan sayin xalqaro konferinsiyalar va bir qancha xalqaro tanlovlarda asosiy muloqot vositasi sifatida ingliz tili birinchi o'ringa chiqdi va asosiy muloqot vositasiga aylandi. Asosiy yo'nalishi ingliz tili bo'lmagan talabalar ham ta'limning keying bosqichlari uchun ingliz tilini o'rganishi majbur etib belgilandi. Ilmiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lgan talabalar ingliz tilini bilishlari shart. Oliy ta'lim muassasalarida ham ingliz tili fanlari bir yil davomida to'liq o'tiladigan bo'ldi.

Kognitiv jarayonlar bu - axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash va esda saqlash bilan bog'liq aqliy faoliyatlar bo'lib, ingliz tilini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Til o'rganishning muvaffaqiyati qanday qilib kognitiv jarayonlar orqali amalga oshishini tushunish juda muhimdir. Kognitiv jarayonlar xotira, diqqat va metakognitiv strategiyalarni o'z ichiga oladi, ular esa ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayonida til qobiliyatlarini samarali tarzda o'zlashtirishga yordam beradi yoki uni qiyinlashtiradi. Ushbu jarayonlar, ayniqsa,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



talaba ingliz tilini o'zlashtirishda juda muhimdir, chunki bu til maxsus lingvistik tuzilmalar, fan sohasiga xos lug'atlar va abstrakt tushunchalar bilan ishlashni talab qiladi. Xotira til o'rganish jarayonida axborotni saqlash va eslab qolishda muhim rol o'ynaydi. Xotira ishchi xotira va uzoq muddatli xotira sifatida ikkiga bo'linadi va ikkalasi ham turli xil til o'rganish jihatlari uchun zarurdir.[1]

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishchi xotira sig'imi yuqori bo'lgan talabalar til bilan bog'liq vazifalarda yaxshiroq natijalarga erishadilar, chunki ular yangi lingvistik ma'lumotlarni qayta ishlash va uni oldingi bilimlar bilan birlashtirishda ko'p miqdordagi kognitiv yukni boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Uzoq muddatli xotira ham til o'rganishda xuddi shunday muhim rol o'ynaydi. Ishchi xotiradan farqli o'laroq, u qisqa vaqt ichida ishlamaydi, balki uzoq muddat davomida lingvistik bilimlarni saqlashga imkon beradi va o'quvchilarga kerakli paytda ushbu bilimlardan foydalanish va qo'llash imkonini yaratadi.

Kognitiv metodologiyada talaba o'z til ko'nikmalarini kognitiv qobiliyatlari, shuningdek, ongida mavjud bo'lgan kognitiv tuzilmalar asosida quradi. Ushbu yondashuv nafaqat til qoidolari va iboralarini yodlash, balki til hodisalarini, ularning ichki mantig'ini va ishlashini tushunishni ham maqsad qilib qo'yadi. Kognitiv metodologiya tilni o'rganishda kognitiv jarayonlarni faollashtirishga qaratilgan turli strategiya va usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunga kontekstli o'rganish usullari, mnemonik strategiyalar, assotsiatsiyalar, o'xshashliklardan foydalanish va til materiallarini chuqurroq va ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradigan boshqa usullar kiradi. Bir nechta taniqli olimlar chet tilini individual rivojlantirishda kognitiv metodologiya sohasida turlicha fikr bildirib keldilsa va ishlashni davom ettirmoqdalar.[2]

Devid Kristal amaliy tilshunoslik va chet tillarini o'qitish sohasidagi faoliyati bilan tanilgan ingliz tilshunosi. U tilni o'rganishning turli jihatlarini, shu jumladan kognitiv jarayonlar va o'qitish usullarini o'rganadi va shunday xulosaga keledi: umumjahon grammatika va tug'ma til tuzilmalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tilni qanday egallashimiz va undan foydalanishimizni tushunishga yordam beradi. Bu talabaning tilga bo'lgan bilimlari, ko'nikmalari, malakalari va qadriyatlari to'plamidir.[3] Ijodiy tafakkur tarzi ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida tabiiy ijtimoiy ta'limiy omillarga bog'liq bo'lib, uning rivojlanishi mazkur omillarni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etishni taqozo qiladi. Mamlakatimizda umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni xorijiy tilnibilishda intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, kognitiv o'quv jarayoniga ta'limning innovatsion shakllarini olib kirish, usullarini takomillashtirish, uzluksiz ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, o'qitish metodikalarini takomillashtirish sohaning strategik vazifalari sifatida belgilangan. Bu esa, o'z navbatida, innovatsion ta'lim muhiti sharoitini ta'minlash va talabalarga chet tilini individual rivojlantirishda kognitiv ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishni, nostandart va kreativ tafakkur tarzini shakllantirishning pedagogik fiziologik psixologik xususiyatlari hamda



shaxsiy xususiyatlari hisobga olish lozim. Kognitiv yondashuv o'quvchilarga o'qish madaniyati ko'nikmalarini egallashga yordam berish, shuningdek, sifatli va pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Kognitiv yondashuvga tayanish natijasida birinchi navbatda o'qish texnikasini o'zlashtirmagan o'quvchilar ham ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishadi. Buning uchun, pedagog avvalo o'quvchilarning o'qish texnikasini rivojlantirish ustida ishlashi kerak. O'quvchi o'qishni boshlaganda, uning oldidagi asosiy vazifa matn mazmunini aniq tushunishdir. Matn mazmunini anglash bevosita o'quvchining bilish faoliyati bilan bog'liq. Matn mazmunini tushunish uchun o'quvchi birinchi navbatda so'zlarning ma'nosini yaxshi bilishi kerak. So'zni yaxshi tushunish uchun uning semantikasini chuqur bilish talab etiladi. Matn mazmunini tushunish, uni qismlarga bo'lib o'qish, har bir qismida ifodalangan mazmunni to'liq bilish uchun shu asosda asar g'oyasi haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish, uning to'liq tushunilishini ta'minlash zarurdir. O'quvchining o'qish madaniyatini shakllantirishda kognitiv modellar bilan ishlash ham alohida o'rin tutadi. Faol diqqat va xotirani qo'llash o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va tajribasiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, o'quvchi matnni qanday o'qiydi, ya'ni matn qanchalik chuqur o'zlashtiriladi, o'quvchi e'tibori va xotirasiga ta'sir qiladi.

Talabalar ona tilining xususiyatlaridan foydalanib, kontekst asosida, rejalashtirilgan va motivatsiyalangan tarzda ingliz tilini o'rganishda yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Benson P., Voller P. *Autonomy and independence in language learning*. – London: Longman. – 1997. – 270 p.
2. Bekarevich, T. I. "Yondashuv" tushunchasi boshlang'ich va o'rta maktablarda chet tillarini o'qitishning nazariy tadqiqotlar metodikasida. 2012 Betlar. 314–315.–Elektron matn. – URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/21/1507/3>.
3. Мариэнн Тэлбот и Рональд Гэтс "Cognitive English Grammar" (Когнитивная грамматика английского языка) 2004, 189, 218-219 с.
4. III. Фоатс. "Cognitive Processes in Second Language Acquisition" (Когнитивные процессы в приобретении второго языка) 2003. - 719 с.

